

ARAB MADANIYATINING HOZIRGI ISPANIYA TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Usmonova Marjona Olim qizi

O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti talabasi

+99893 356 73 32

Ahrorova Madina Rahmatovna

O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti

o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Islom tarixini uchdan birini o‘z ichiga olgan Andalusiya davlati haqida so‘z boradi. Arablar Ispaniyani bosib olganlaridan so‘ng bu yerdagi hayot butunlay o‘zgarib ketganligi, jamiyatning madaniy hayotga islom dini ta’sir qilganligi, Andalusiyaning keying taraqqiyotida shubhasiz muhim ahamiyatga ega bo‘lganligini kuzatish mumkin.

Kalit so‘zlar: Seviliya, Gibraltar bo‘g‘ozi, Toledo, Granada, Abdurahmon, madrasalar.

Tarixdan malumki, VII asrga kelib arab qabilalari Muhammad s.a.v. boshchiliklarida bir bayroq ostida birlashdilar. Islom dini arab qabilalari birlashuviga asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Keyingi asrlarda xalifalar Falastin, Suriya, Eron, Shimoliy Afrika, O‘rta Osiyo va Ispaniyaga hujumlar qilib Islom dinini yoyishga muvaffaq bo‘lganlar. VIII asrda arablar Pireney yarimoroliga hujumlar uyushtirishadi. Arablar bosib olgan Ispaniyada ko‘plab mustaqil amirliklar tashkil topadi. Ular ichida eng yiriklaridan biri bu Andalusiya davlatidir. Xo‘sh Andalusiya tarixi va madaniyati qanday bo‘lgan? U yerda odamlar qanday yashashgan? Qanday qilib Andalusiya juda ko‘p asrlar davomida Evropaning ham iqtisodiy, ham siyosiy ham madaniy jihatdan eng rivojlangan davlatiga aylangan? Quyida shu savollarga javob topishga harakat qilamiz...

Tarixni o‘zgartirgan ko‘plab mashhur o‘rta asr janglari mavjud. Poitiers, Hastings, Krese, Grunvald... Ammo keng jamoatchilik e’tiboridan chetda qolgan va janglar olami taqdiriga ta’sir qiladigan juda kam janglar bor.

711-yildagi Gvadaleta jangi Evropa tarixini o‘zgartirgan jang hisoblanadi. Pireney yarimoroli eramizdan avvalgi III-II asrlarda rimliklar tomonidan bosib olingan bo‘lib u yerda lotin tili o‘zlashtirilgan. V asr o‘rtalarida vestgotlar yarimorolni bosib oladilar va arablar istilosigacha hukmronlik qiladilar.

711-yili Shimoliy Afrika arablari Gibraltar bo‘g‘ozidan o‘tib, Ispaniyaga bostirib kirdilar va uch yil davomida Janubiy va Markaziy viloyatlarni egallaydi. Ispaniyaning arablar tomonidan zabt etilishi ispan arabi Ahmad ibn Muhammad ar-

Roziy (vafoti 955-yil) tomonidan yozib qoldirilgan. X arga kelib Ispaniya aholisini asosan arablar tashkil etgan. Arab Ispaniyasi xalifalikdan uzoqda joylashgan bo‘lib, ko‘p masalalarda xalifalikdan mustaqil siyosat olib borgan. Xalifalik markaziga abbosiylar kelgach, Ummaviylardan bo‘lgan Abdurahmon 755-yil G‘arbda Ummaviylar hukmronligi tiklaydi. Davlat – poytaxti Kordovada (Qurdoba) joylashadi. 929-yilga kelib Abdurahmon III o‘zini mustaqil xalifa deb e‘lon qiladi. Ispaniyada Ummaviylar hukmronlik qilgan davr, mamlakatning iqtisodiy-madaniy gullagan davr bo‘lgan. Abdurahmon III Sharqiy islom malakatlari bilan, ayni zamonda Avrupo mamlakatlari bilan savdo, madaniy aloqalar olib borilgan [1].

Hozirgi Ispaniya va Portugaliya hududi, ya‘ni, Pireney yarimoroli qadimda “Andalus” deb atalgan. Arab saltanatining bir qismi bo‘lgan bu hududda VIII-X asrlarda kuchli va adolatli boshqaruviga asoslangan davlat paydo buldi. Andalus 711-yili fath etilib, bu yerda musulmonlar davlati qaror topgan edi. Bu haqda “Musavvar tarixi Islom” asarida quyidagi ma‘lumotlar bor: “Andalus qit‘asi umaviylar davrida, Abdumalik zamonida fath etilib, abbosiylar davlatini tan olmay qo‘ydi. Bu mustaqil davlat 750-yili qaror topib “Qurtub saltanati” nomi bilan mashhur bo‘lib, unda o‘n to‘rt hukmdor hukmronlik qildi[2]

Andalus hukmdorlari ham ilm-fanga homiylik qilgan, o‘zlari diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor edi. Bu vaqtda hukmdor va va amaldorlarning farzandlari ham munozaralar va majlislarda muntazam ishtirok etib kelishgan. Andalusning birinchi hukmdori Abdurahmon (756-788-yillar) dastlab Pipin va boshqa tashqi dushmanlar hujumini qaytardi. Mamlakatda tinchlik qaror topgach davlatni isloh qilishga kirishdi. Kanallar, suv yo‘llari qazdirdi. Yurt obod bo‘ldi. Qurdoba va boshqa shaharlarda katta-katta madrasa va masjidlar, kasalxonalar qurildi. Abdurahmon ibn Muhammad davrida Qurdobada Ovrupada birinchi tibbiyot maktabi ochilgan. Abdurahmon Andalusni dushmanlarda himoya qilish uchun qal‘a va istehkomlar barpo ettirdi. Yurt mudofaasi va tijorat uchun kemalar yasatdi[3].

Andalusda tashkil etilgan ummaviylar davlatining hukmronligi hijriy 138-yildan 422-yilgacha davom etadi (756-1031-yillar).

Ijzatingiz bilan o‘sha vaqtlarda musulmon olamining Evropaga tutashib turgan bo‘lagi - Andalusiyadagi ilmiy sohasidagi holat haqoda ham ikki og‘iz so‘z yuritsak. Uchish moslamasini yaratish g‘oyasi aka-uka Raytlardan ming yil oldin andalusiyalik falakiyotchi va ixtirochi Abbas ibn Firnasda paydo bo‘lgan. Andalusiyalik mashhur olim Abdulloh ibn Baytar (milodiy 1190-1248) o‘rta asrlarda yirik o‘simlikshunos va farmasevt sifatida shuhrat qozongan bo‘lib, 1400 ga yaqin dorivor o‘simliklar va o‘tlarni tafsiflagan, o‘lardan 300 ga yaqini ilgari tabobatda nomalum o‘simliklardir.

Mashhur tabib Xalaf Zahroviy (milodiy 963-1013-yillar) jarrohlikni mustaqil fan sifatida fanga aylantirdi va ikki yuzga jarrohlik asboblarni tavsiflab berdi.

Qordovadagi Zahroviy yashagan ko‘cha uning nomi bilan – “Calle Albucassis” (“Abul Qosim ko‘chasi) deb ataladi. Andalusiyalik olim Jobir ibn Aflah (XII asr) o‘zining falakiyot va riyoziyot sohasidagi ixtirolari bilan shuhrat qozondi. Ma’lumki, Ibrohim al-Fazariy (milodiy 777-yilda vafot etgan) tomonidan usturlobni - yulduzlar joylashuvini aniqlash uchun ishlatiladigan burchakni o‘lchaydigan asbobning ixtirosi musulmon olimlarining astronomiya sohasiga qo‘shgan buyuk xizmatlaridan biri bo‘ldi.

Atoqli andalusiyalik faylasuf Ibn Rushd (1126-1198-yillar) Arastuning o‘rta asrlardagi birinchi sharhlovchisi hisoblanadi. Uning asarlari ta’sirida Fransiyada “lotin averroizmi” (Ibn Rushd ismining lotincha talafuzi – Averoes) nomi bilan tanilgan oqim paydo bo‘ldi. Musulmonlarning riyoziyot sohasidagi yutuqlarini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Ushbu yutuqlarni, hattoki, Evropalik olimlarini ham qoyil qoldirmoqda. Misol uchun, taniqli g‘arb olimi, professor Jak Risler shunday degan edi: “Uyg‘onish davridagi bizning riyoziyot ustozlarimiz musulmonlar bo‘lishgan”.

Ta’kidlash lozimki, 950-yilda Andalusiyada Evropadagi birinchi qog‘oz ishlab chiqarish fabrikasi qurilgan. Evropaning boshqa davlatlarida esa, bunday fabrikalar ancha keyin paydo bo‘lgan: Rumda - 1100-yilda, Sitsiliyada -1102-yilda, Olmoniyada - 1128-yilda, Angliyada esa, 1309-yilda qurilgan[4. 111-115 b].

Kordovaning 500 mingga yaqin aholisi bo‘lgan, Ispaniya hayotida arablarining ajoyib arxetikturasi alohida o‘rin egallaydi. Arablar Ispaniyada juda mustahkam yodgorliklar qurib qoldirganki, bunyodgaorliklar hozirgacha saqlanib qolgan: VIII asrda qurilgan Kordova masjidi, Granadadagi XIII asrda bunyod etilgan Algambra saroyi, yana XIII asrda bunyod etilgan Alkasar qasri Ispaniyada arab madaniyati yuksak bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘sha kezlarda Kordovada 70 ta kutubxona mavjud bo‘lib, bu marifat dargohlarida har yili 18 ming kitob ko‘chilar, odatda bitta kitob bir necha kitoblarni o‘z ichiga olar edi.

Arablar davrida hunarmandchilik barq urib rivojlandi: metal, charm, ipak, oyna va zargarlik buyumlari ishlab chiqarish yuksak darajada takomilashtirilgan edi. Kordova xaligaligi Shimoliy Afrika orqali Sharqadagi barcha musulmon mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini yaxshi rivojlantirganlar.

Al-Andalusiya ijtimoiy tuzumi, unda yer egaligi munosabatlarining o‘ziga xos mahalliy ko‘rinishi shakllanganligidan dalolat beradi. Domenlar deyarlik bo‘lmagan qishloq xo‘jaligida dehqon xo‘jaligi hukmron edi. Dehqonlar hosilning 2/3 qismi hisobiga yirik er egaligalari (harbiylar, amaldorlar, saroy amaldorlari va hokazolardan)dan ijaraga yer olib, yana davlatga soliqlarini ham to‘laganlar, Yevropaning boshqa mamlakatlaridan farqliroq, ilk o‘rta asrlarda Ispaniyda soliqlar pul bilan olingan.

Mahalliy aholining ma’lum qismi islomni qabul qilsa, boshqalari o‘z dinlarini saqlab, mavrlar tili va madaniyatini o‘zlashtirganlar. Bu toifa aholi mosarblar nomini olgan.

Musulmon Ispaniyasining taraqqiy etgan shahar sivilizatsiyasi ilk o‘rta asrlar Evropasi uchun misli ko‘rilmagan madaniy taraqqiyot asosi bo‘ladi. Kordova, Seviliya, Toledoning dunyoviy va diniy maktablarida falsafa, tarix, huquq, o‘rganilar edi, qizig‘i, bu yerda Yevropaning xristian davlatlaridan kelgan tolibi ilmlar ham kelgan[5. 87b].

Xullas, qariyb uch asr davom etgan Andalus uyg‘onish davrida musulmon ilm-fani va madaniyati Ovrupaga kirib bordi, qit’a tamadduniga katta turtki bo‘ldi. Biz Islom Andalusiya davlatining tarixini o‘rganar ekanmiz, mintaqadagi arablar hukmronligi va ularning ilm-fan rivoji uchun qilgan harakatlarini qanchalik yuksak bo‘lganligini guvohi bo‘lamiz. Ba’zi bir hukmdorlardan farqli o‘laroq Andalusiya hukmronlik qilgan shaxslar tom ma’noda diniy va dunyoviy masalalarda xabardor bo‘lgan va har tomonlama Andalusiyaning katta bir davlat bo‘lishiga o‘z hissalarini qo‘shishgan. Hozirgi kunda ham Ispaniyada arablar bunyod etgan sharq xalqlarining noyob naqshlari solingan o‘ziga maftun etuvchi bir qancha yodgorliklar qad roslab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://arxiv.uz>
2. <https://nauchniyimpuls.ru>
3. <https://zamin.uz>
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Islom tarixi*. Toshkent. 2022
5. T. Salimov. *Jahon tarixi*. 2014.